

## **O'ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO'ZLARNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN DIDAKTIK O'YINLI DARSLARNING TURLARI**

**Abdurahmanov Abdulaziz Ulug'bek o'g'li,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'naliishi*

*3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek tilida yordamchi so'zlarni o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. O'yinli darslar talabalarning o'quv jarayoniga faol ishtirokini ta'minlab, ularning nutqiy, ijodiy va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada o'yinlarning turlari, ularning metodologik asoslari, ta'limdagi roli va samaradorligi muhokama qilinadi. "So'z zanjiri", "Bingo" va "Juftini topping" kabi o'yinlar misolida yordamchi so'zlarni o'zlashtirish jarayonining interaktiv va samarali yondashuvlar bilan boyitilishi ko'rsatib o'tilgan. O'yinlarning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va ta'limiy funksiyalari yoritilib, ularning talabalarning mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalariga ta'siri ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, yordamchi so'zlar, didaktik o'yin, o'yinli dars, ta'lim metodikasi, nutq ko'nikmalar, ijodiy faoliyat.

### **KIRISH**

O'zbek tili o'qitishda yordamchi so'zlarni o'rgatish jarayoni talabalarning bilim olish faoliyatini o'yin elementlari bilan boyitish orqali yanada samarali va qiziqarli bo'ladi. Didaktik o'yinli darslar deb ataladigan bu yondashuv talabalarning o'quv jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning qiziqishini oshiradi va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yin faoliyati inson hayotida muhim vazifalarni bajaradi:

- Shaxsning muayyan faoliyatga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'quv jarayonini qiziqarli va maqsadli qiladi;

- Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirib, kommunikativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi;
- Talabaning o'z qobiliyatlarini, ijodiy salohiyatini va shaxsiy o'zligini namoyon qilishiga imkon beradi;
- Hayotda va o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish, to'g'ri yo'naliш tanlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- Ijtimoiy me'yorlarga mos xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi, shaxsiy kamchiliklarni bartaraf etish imkonini yaratadi;
- Ijobiy xislatlar va fazilatlarni shakllantirishga zamin yaratadi, talabalarni ma'naviy rivojlanishga yo'naltiradi;
- Ijtimoiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlar tizimini o'rganishga e'tibor qaratadi;
- Jamoaviy muloqot madaniyatini mustahkamlashni ko'zda tutadi, guruhdagi hamkorlikni rivojlantiradi.

O'yin faoliyati talabalarning o'zbek tilidagi yordamchi so'zlarni o'zlashtirishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqola o'zbek tilida yordamchi so'zlarni o'qitishda didaktik o'yinlarning turlari, ularning xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqola talabalarning nutq madaniyatini shakllantirish, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish va o'yinli darslarning ta'limdagi samarasini oshirishga qaratilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Didaktik o'yinli darslar o'zbek tili ta'limida talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'yin faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- Talabalar o'yin jarayonida rollar va vazifalarni mustaqil tanlaydi, bu ularning o'z faoliyatini tahlil qilish, maqsadga yo'naltirilgan natijalarga erishish va o'ziga ishonchni oshirish imkonini beradi;
- Ijodiy muhit yaratadi, talabalarni muammolarni mustaqil va ijodiy yo'l bilan hal qilishga undaydi;
- Musobaqa, raqobat, hamkorlik va o'zaro yordamni rivojlantiradi, his-hayajonli vaziyatlar orqali bilimlarni xotirada mustahkamlashga yordam beradi;

- Qoidalarga rioya qilish orqali ijtimoiy intizom ko'nikmalarini shakllantiradi, talabalarni ongli intizomga o'rgatadi;
- O'yin mazmuni va mantiqiy ketma-ketligi talabalarni muammoli vaziyatlarni tezda hal qilishga, to'g'ri yo'nalish tanlashga va vaqtini boshqarishga o'rgatadi<sup>1</sup>. Tadqiqotchilar, masalan, I.Po'latov va S.Odilov, didaktik o'yinlarning ta'limgagi muhim rolini ta'kidlab, ularning talabalarning ijodiy, kommunikativ va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatganlar<sup>2</sup>. O'yinlarning tuzilishi va metodologiyasi talabalarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, o'yinlar orqali yordamchi so'zlarning turlari (ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar) o'quvchilar ongida aniq va doimiy shaklda saqlanadi. Ushbu bo'limda didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi samarasi, ularning turlari va qo'llanilish metodlari tahlil qilinadi. O'yinlarning muvaffaqiyati o'qituvchining professional yondashuvi va talabalarning faol ishtirokiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda didaktik vositalar, interaktiv usullar va ko'rgazmali materiallardan foydalanish muhim hisoblanadi.

## NATIJALAR

Didaktik o'yinli darslarning muvaffaqiyati talabalarning puxta tayyorgarligi va o'qituvchining ushbu faoliyatni mohirona tashkil qilishiga bog'liq. O'yinlar talabalarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantiradi. O'yinlar maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1. Guruh bo'lib ishlash muhitini shakllantiruvchi o'yinlar:** Guruh a'zolarining o'zaro tanishishini ta'minlaydi, jamoaviy ishtyoqni oshiradi, charchoqni tarqatadi va erkin muloqot muhitini yaratadi.
- 2. Umumiy qiziqishlarni aniqlovchi o'yinlar:** Guruh a'zolarining umumiyl manfaatlarini aniqlash orqali ularning o'zaro munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi, yangi kelgan talabalarni guruhga moslashishini osonlashtiradi.
- 3. Guruh birligini qo'llab-quvvatlovchi o'yinlar:** Jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi, guruhning jipsligini mustahkamlaydi.

---

<sup>1</sup> Po'latov I., Odilov S. *Ona tili ta'limgida didaktik o'yinlar texnologiyasi*. Qo'qon: TDPU, 2014, 7-bet.

<sup>2</sup> Po'latov I., Odilov S. *Ona tili ta'limgida didaktik o'yinlar texnologiyasi*. Qo'qon: TDPU, 2014, 7-bet.

**4. O‘zaro bog‘lovchi o‘yinlar:** Mavzular o‘rtasida silliq o‘tishni ta’minlaydi, yangi mavzuni o‘rganishni faollashtiradi.

**5. Rag‘batlantiruvchi o‘yinlar:** Murakkab mavzularni muhokama qilishga undaydi, guruh bo‘lib ishlashni rag‘batlantiradi.

**6. Ijodkorlikni rivojlantiruvchi o‘yinlar:** Talabalarni yangi yondashuvlarni kashf qilishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi.

**7. Yakunlovchi o‘yinlar:** O‘rganilgan mavzuni mustahkamlashga, bilim va ko‘nikmalarini umumlashtirishga xizmat qiladi<sup>3</sup>.

Quyida yordamchi so‘zlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan namunaviy o‘yinlar va ularning ta’limdagi qo‘llanilishi keltiriladi:

#### **“So‘z zanjiri” o‘yini:**

Talabalar guruhlarga bo‘linadi va yozuv taxtasida yordamchi so‘zlardan zanjir tuzadilar. Masalan:

- 1-guruh: bilan, ko‘ra, sari, sayin, kabi, uzra, qadar, dovur...
- 2-guruh: va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki...
- 3-guruh: axir, hatto, nahot, tim, qoq, g‘irt, shilta...

O‘yin mushoira tarzida o‘tkaziladi, eng uzun zanjir tuzgan guruh g‘olib deb topiladi. Bu o‘yin yordamchi so‘zlarni yodlashni osonlashtiradi, talabalarning taxtada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va guruhda raqobat muhitini yaratadi<sup>4</sup>.

#### **“Bingo” o‘yini:**

O‘qituvchi 25 katakli bingo-jadval tuzadi, unda yordamchi so‘zlarning ta’riflari va topshiriqlari joylashadi. Talabalar 10 daqiqa ichida jadvalni to‘ldiradi, birinchi to‘ldirgan talaba “bingo” deb e’lon qiladi va rag‘batlantiruvchi sovg‘a (masalan, kitob yoki jurnal) oladi. Bu o‘yin bilimlarni mustahkamlashga va talabalarni faol ishtirok etishga undaydi.

#### **“Juftini toping” o‘yini:**

<sup>3</sup> Ziyodova T.U. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish*. Toshkent, 2002.

<sup>4</sup> Po‘latov I., Odilov S. *Ona tili ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi*. Qo‘qon: TDPU, 2014, 7-bet.

Talabalar ikki guruhga bo‘linadi, har bir guruhga yordamchi so‘z (masalan, bog‘lovchi) beriladi. Ular bu so‘zning bog‘lovchi sifatidagi ma’nosini va boshqa ma’noda (masalan, yuklama sifatida) ishlatilgan shaklini topadilar. Misollar:

- *Ham*: “Kitob ham daftar oldim” (bog‘lovchi) – “Men ham kitob o‘qiyman” (yuklama).
- *Balki*: “Men o‘qimayman, balki yodlab olaman” (bog‘lovchi) – “Balki, u kelgandir” (modal so‘z).

Bu o‘yin talabalarning yordamchi so‘zlarning turli ma’nolarini farqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi<sup>5</sup>.

O‘yinlarning har biri o‘qituvchi tomonidan puxta tayyorlanadi va talabalarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va guruh dinamikasiga moslashtiriladi. O‘yinlar darsning kirish, asosiy yoki yakunlovchi qismida qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular talabalarning diqqatini jalb qilish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilishda muhim rol o‘ynaydi.

## MUNOZARA

Didaktik o‘yinlar yordamchi so‘zlarni o‘qitishda talabalarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy tafakkurini va nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yin faoliyati psixologik jihatdan shaxsnинг o‘zini namoyon qilish, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash ehtiyojlariga asoslanadi<sup>6</sup>. O‘yinlarning tuzilishi – maqsad, qoidalar, musobaqa va vaqt balansi – talabalarni muammolarni tez hal qilishga, ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga va jamoaviy ishlashga undaydi. Masalan, “So‘z zanjiri” o‘yini yordamchi so‘zlarni yodlashni osonlashtirsa, “Bingo” o‘yini bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, “Juftini toping” esa so‘zlarning ko‘p ma’nolilagini tushunishga yordam beradi.

O‘qituvchining o‘yin yakunidagi sharhlari talabalarning xatolarini tushunishiga, yangi g‘oyalarni shakllantirishiga va o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. O‘yinlar talabalarni mustaqil va jamoaviy ishlashga o‘rgatadi, ijtimoiy me’yorlarga mos xulq-atvorni rivojlantiradi. Masalan, guruhlarda o‘tkaziladigan o‘yinlar talabalarning bir-biriga yordam

<sup>5</sup> Ziyodova T.U. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish*. Toshkent, 2002.

<sup>6</sup> Kaminiskiy Y.A. *Buyuk didaktika*. Toshkent: Sharq, 1996, 216-bet.

berish, hamkorlik qilish va raqobat muhitida o‘zini tutish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘yinlarning didaktik maqsadi – bilimlarni o‘zlashtirish, tarbiyaviy maqsadi – ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni singdirish, rivojlantiruvchi maqsadi esa diqqat, xotira, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni oshirishdan iborat. O‘yinlarning samarasi talabalarning o‘quv jarayoniga faol jalg qilinishini ta’minlaydi va ularning til o‘rganishda motivatsiyasini oshiradi.

## **XULOSA**

O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarni o‘qitishda didaktik o‘yinli darslar talabalarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinlarning turlari – guruh birligini qo‘llab-quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi, ijodkorlikni rivojlantiruvchi va yakunlovchi o‘yinlar – ta’limning turli bosqichlarida samarali qo‘llaniladi. “So‘z zanjiri”, “Bingo” va “Juftini toping” kabi o‘yinlar yordamchi so‘zlarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi, talabalarning nutq madaniyatini oshiradi va ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. O‘qituvchining mohirona rahbarligi va talabalarning faol ishtiroki o‘yinli darslarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Didaktik o‘yinlar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarni ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarga jalg qilishga, ularning o‘ziga ishonchini oshirishga va til imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi<sup>7</sup>. O‘yinlar orqali talabalar o‘zbek tilining yordamchi so‘zlarini o‘rganishda faqat bilim olibgina qolmay, balki ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy hamkorlik va ijodiy yondashuvlarni ham rivojlantiradi.

### **Foydalilanigan Adabiyotlar Ro‘Yxati:**

1. Po‘latov I., Odilov S. *Ona tili ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi*. Qo‘qon: TDPU, 2014, 7-bet.
2. Ziyodova T.U. *Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish*. Toshkent, 2002.
3. Kaminiskiy Y.A. *Buyuk didaktika*. Toshkent: Sharq, 1996, 216-bet.

---

<sup>7</sup> Po‘latov I., Odilov S. *Ona tili ta’limida didaktik o‘yinlar texnologiyasi*. Qo‘qon: TDPU, 2014, 7-bet.